
BUGUN “MARSHALL CAVENDISH EDUCATION” XALQARO TA’LIM TASHKILOTI DASTURI ASOSIDA TRENINGLARGA START BERILDI.

Seminarda tuman hokimining o‘rinbosari E. Madaminov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i A.Soliyev, umumta’lim maktablari direktorlari, matematika va tabiiy (Science) fan o‘qituvchilari ishtirok etdi.

2-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan 50 nafar direktor, 50 nafar aniq fanlar metod birlashmalari rahbarlari va 50 nafar tabiiy fanlar metod birlashma rahbarlari xalqaro ta’lim dasturlari asosida malakasini oshirmoqda.

O‘qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etilgan ushbu seminar joriy yilning 21 avgust kunidan 24 avgust kuniga qadar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

2024-08-21 16:43:42